- oraliq baholash (ON);
- yakuniy baholash (YAN).

«Ochiq konchilik ishlari» fani bo'yicha talabani semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 baho tizimda baholanadi.

**5 (a'lo) baho:** talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;ijodiy fikrlay olish;mustaqil mushohada yurita olish;olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

mohiyatini tushunish;bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.

**4 (yaxshi) baho:** talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish;tasavvurga ega bo'lish.

**3 (qoniqarli) baho:**uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;bilish, aytib berish;tasavvurga ega bo'lish.

**2 (qoniqarsiz) baho:** dasturni o'zlashtirmaganlik,fanning mohiyatini bilmaslik, aniq tasavvurga ega bo'lmaslik,mustaqil fikrlay olmaslik.

### 8. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlari va axborot manbalari


**Asosiy adabiyotlar**

1.Ржевский В.В.Открытые горные работы. I-II часть. М Недра 2006г.

2.Сагатов Н.Х. Арипова Л .Т. Очиқ кон ишлари технологияси ва комплекс механизациялаш маърузалари тўплами. 2011.

3.Петросов Ю.Э. Технология и комплексная механизация открытых горных работ  I-II часть Конспект лекции по курсу ТКМОР ТГТУ Ташкент 2001.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

4. Мирзиёев Ш.М. Танкидий тахлил, катъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истикболларига бағишланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутки."Халқ сўзи" газетаси.2017 й 16 январь, №11.

5.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.: Узбекистон 2017- 46.

6. Егоров П.В., Бобер Ю.Н. и др. Основы горного дела. Москва **2000.**

7. Сагатов Н Д . Кон ишлари асослари. Ўкув қўлланма. Тошкент.ТДТУ нашриёти. 2005.

**Internet saytlar**

1. http://www.mining.ite-uzbekistan.uz/ru
2. http: // www.mincnct.com-Mining companies.
3. http: //www. Rsl.ru- Российская государственная библиотека.
4. http.// www.tlibrar>.ru/menu info.asp —научно электронная библиотека.
5- w ww.vak.uz :
6 - http:// www.minino- joumal.com/mi/MJ/mi.htm-Mining Journal
7. http //www.mggu.ru - Москва Давлат кончилик университета.
8. http//www.rusmet.ru/minjomal- Г о р н ы й ж у р н а л ».




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

Ro'yxatga olindi:
№ 190
"29" 08 2022 yil

"Tasdiqlayman"
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
O.N. Bozorov
"___" ________ 2022 yil

**"Geologiya va konchilik ishi" fakulteti**
**"Konchilik ishi" kafedrasi**

**5311600 - Konchilik ish bakalavriat yo'nalishi uchun**

# OCHIQ KONCHILIK ISHLARI

**FANINING ISHCHI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 300 000 -Ishlab chiqarish texnik soha
Ta'lim sohasi: 310 000 -Muhandislik ishi
Ta'lim yonalishi: 5311600- Konchilik ishi (yer osti konchilik ishlari)

Umumiy o'quv soati - **190** soat
Shu jumladan:
Ma'ruza – **48** soat
Amaliy mashg'ulotlar – **48** soat
Laboratoriya mashg'ulotlari – **0** soat (*labaratoriya mashg'ulot rejada ko'rsatilmagan*)
Mustaqil ta'lim soati – **94** soat

**Qarshi-2022 yil**

Fanning namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 2018 yil 25.08 dagi 744-sonli buyrug'i bilan (buyruqning ___ -ilovasi) tasdiqlangan "Ochiq konchilik ishlari" fani dasturi asosida tayyorlangan.

"Ochiq konchilik ishlari " fani ishchi o'quv dasturi "Konchilik ishi" kafedrasining 2022 yil 26 avgustdagi № 1 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va Geologiya va konchilik ishi fakulteti Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

"Ochiq konchilik ishlari" fani ishchi o'quv dasturi "Gelologiya va konchilik ishi" fakulteti Uslubiy Kengashida (bayon № 1 27.08 2022 yil.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

"Ochiq konchilik ishlari" fani ishchi o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil 29 08 dagi 1 -sonli bayoni bilan tasdiqlandi.

Tuzuvchi : A.M.Xo'jaqulov QarMII "Konchilik ishi " kafedrasi katta o'qituvchisi

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i Sh. R. Turdiyev

Fakultet kengashi raisi M. J. G'ofirov

Kafedra mudiri A. N. Shodiyev



### 1. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limidagi o'rni

**"Ochiq konchilik ishlari"** fani ixtisoslik fanlar tarkibiga kiradi. O'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr: konlarni ochiq usulda qazib olishning o'ziga xos texnologik xususiyatlari,kon qazish korxonalari va ularning asosiy texnikiqtisodiy ko'rsatkichlari,karyerning asosiy elementlari va ularning parametrlari,kon massasini massivdan ajratib olish usullari, karyerlarda qazib-yuklash, tashish, ag'darma hosil qilish ishlari, karyer maydoni va uni ochish usullari, qoplama jinslar va foydali qazilmani qazib olish tizimlari, karyerlarda kon ishlarini olib borish rejimi kabi masalalarni o'rganadi.

### 2. O'quv fanining maqsad va vazifalari

Fanni o'qitilishidan maqsad - "Ochiq konchilik ishlari" o'quv fanini o'zlashtirish doirasida bakalavr ochiq usulda qazib olinadigan konlarning o'ziga xos kon-geologik va kon-texnik sharoitlarini, karyerning asosiy parametrlarini va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini, ochiq usulda konlarni qazib olishning afzallik va kamchiliklari kabi tushunchalar majmuini bilish.

**Fanning vazifasi-uni o 'rganuvchilarga**:

- kon massivlarini qazishga tayyorlash usullari va texnologiyalarini,karyer maydonini ochish usullari tasnifi va ularni tanlab olishga ta'sir etuvchi omillarni, karyer maydonini ochuvchi lahimlarning hajmini aniqlash usullarini, qoplama jins ag'darmalarini hosil qilish va unda qo'llanadigan texnologiya vositalarini, karyerdagi yuk hajmi va yuk aylamasini aniqlash usullarini;
- yuk tashish usullari va unda qo'llanadigan transport vositalarini, konlarni ochiq usulda qazib chiqarishning xavfsizligini ta 'minlash asoslarini va asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini bilishi kerak.

Ushbu dastur fan tarixi va rivojining tendenstiyasini, istiqbolini va iqtisodiy islohotlarini, O'zbekiston Respublikasi konchilik sanoatining ishlab chiqarish jarayonlarini, qo'llaniladigan konchilik uslublari va texnologiyalarini, shuningdek konchilik parametrlarini hisoblash usullarini qamraydi. "Ochiq konchilik ishlari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar bakalavr:

- kon massalarini qazishga tayyorlash usullari va texnologiyalarini, karyer maydonini ochish usullari tasnifi va ularni tanlab olishga ta'sir etuvchi omillarni, karyer maydonini ochuvchi lahimlarning hajmini aniqlash usullarini o'rganish haqida ***tasavvurga ega bo'lish***;
- qoplama jins ag'darmalarini hosil qilish va unda qo'llanadigan texnologiya vositalarini, karyerdagi yuk hajmi va yuk aylanmasini aniqlash usullarini, yuk tashish usullari va unda qo'llanadigan transport vositalarini, konlarni ochiq usulda qazib chiqarishning xavfsizligini ta'minlash asoslarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- karyerning asosiy parametrlarini va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini, kon massivlarini qazishga tayyorlash usullari va texnologiyalarini, karyer maydonini ochish usullari tasnifi va ularni tanlab olishga ta'sir etuvchi omillarni, karyer maydonini ochuvchi lahimlarning hajmini aniqlash usullarini, qoplama jins ag'darmalarini hosil qilish va unda qo'llanadigan texnologiya vositalarini, yuk tashish usullari va unda qo'llanadigan transport vositalarini, konlarni ochiq usulda qazib chiqarishning xavfsizligini aniqlash ***malakasiga ega bilishi kerak.***

### 3. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

**Ma'ruza mashg'ulotlari**

| T/r | Mavzular nomi | Soat |
|---|---|---|
| | ***VII- semestr*** | |
| | **1- modul. Kirish. Ochiq kon ishlari to'g'risida umumiy ma'lumotlar** | |
| 1 | Konlarni ochiq usulda qazib olish va uning mohiyati to'g'risida tushunchalar. | 2 |
| 2 | Karyer elementlari va ularning parametrlari. | 2 |
| 3 | Pog'ona va uning elementlari. Ochiq konchilik ishlarining tabiiy sharoitlarga bog'liqligi. | 2 |
| 4 | Ochiq konchilik ishlari jarayonlari va davrlari. | 2 |
| | **2- modul. Kon jinslarini qazishga tayyorlash** | |
| 5 | Kon jinslari-ochiq konchilik ishlari ob'ekti. Kon jinslarini qazishga tayyorlash usullari. | 2 |
| 6 | Portlatish skvajinalari va ularning parametrlari. Kon jinslari burg'ulanuvchanligi. | 2 |
| 7 | Burg'ulash stanoklari va portlatish skvajinalarini burg'ilash texnologiyasi. | 2 |

| | | |
|---|---|---|
| 8 | Burg'ilash stanoklari unumdorligini hisoblash. Kon jinslarining portlovchanligi va portlovchi modda sarfi. | 2 |
| 9 | Skvajinlarning joylashish va portlatish tartibi. Skvajina zaryadining konstruktsiyasi va hisoblash printsiplari. | 2 |
| 10 | Ikkilamchi maydalash. Skvajinalarni burg'ilash va portlatishda yordamchi ishlarni mexanizatsiyalash. Osma maydalagichlar yordamida kon jinslarini qazishga tayyorlash. | |
| | **3- modul. Kon jinslarini qazib olish va yuklash** | |
| 11 | Qazib-yuklash uskunalari va qazib-yuklash ishlarining texnologik sxemalari. Ekskavatorlar tasnifi va ularning texnologik tavsifi. | 2 |
| 12 | Mexanik cho'michli ekskavatorlar va draglaynlarning texnologik parametrlari. Kon massasini qazib olish texnologiyasi va mexanik cho'michli hamda draglaynlar kavjoylarining parametrlari. Gidravlik ekskavatorlarning texnologik parametrlari. Ko'p cho'michli ekskavatorlarning texnologik parametrlari. Ko'p cho'michli ekskavatorlarning qazish texnologiyasi va kavjoylari parametrlari. Ekskavatorlar unumdorligini hisoblash. | 2 |
| 13 | Karyerlarda buldozer, skreper va bir cho'michli yuklagichlarning qo'llanilishi. Kon massasini qazib-yuklashda yordamchi ishlarni mexanizatsiyalash. | 2 |
| | **4- modul. Karyer transporti** | |
| 14 | Karyer transportining o'ziga xos xususiyatlari. Kaiyer yuk aylanmasi va yuk potoki. Karyer transportining asosiy ko'rinishlari va texnologik tavsiflari. Temiryo'l transporti yo'llari va harakatlanuvchi sostavlarning tavsifi. Pog'onalarda almashish operatsiyalarini tashkil qilish. Poyezdning foydali massasi, temiryo'ning yuk o 'tkazish qobiliyati va harakatlanuvchi sostav parkini hisoblash. | 2 |
| 15 | Karyer avtotransporti yo'llari va harakatlanish sostavlarning tavsifi. Avtoag'dargich parki va yo'llarining o 'tkazuvchanlik qobiliyatini hisoblash. Tasmali konveyerlarning texnologik tavsifi, qo'llanish sharoitlari va unumdorligi. Karyerlarda turli transport vositalari kombinatsiyasi. | 2 |
| | **5- modul. Qoplama jins ag'darmalarini hosil qilish** | |
| 16 | Ag'darma hosil ilish jarayonining mohiyati va uning boshqa jarayonlar bilan bog'liqligi. Temityo'l transportida ag'darma hosil qilish. Avtomobil transportida ag'darma hosil qilish. Konveyer transportida ag'darma hosil qilish. | 2 |
| | **6- modul. Karyer maydoni va uni ochish** | |
| 17 | Karyer maydoni va uni ochish ishlari haqida umumiy ma'lumotlar. Ochiq kon lahimlari va ularning vazifalari. Kapital transheyalar tizimi. Kapital transheya hajmini aniqlash. | 2 |
| 18 | Ochish usullarining tasnifi va karyer maydonining ochish usulini tanlash. Kapital transheyalar trassasi. Kon lahimlarini o'tish texnologiyasi, mexanizatsiyasi va tashkil qilish ishlari. Karyerni qurishdagi kon-kapital ishlar. | 2 |
| | **7- modul. Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish tizimlari** | |
| 19 | Qazish tizimlari tasnifi. Qazish tizimining elementlari. | 2 |
| | **8- modul. Gorizontal va yotiq konlarni qazib olish tizimlari** | |
| 20 | Qoplama jinslarni bir cho'michli ekskavatorlar bilan qazishdan bo'shagan maydonga joylashtirish ishlari texnologiyasi. | 2 |
| 21 | Ochish ishlarida qoplama jinslarni bir cho'michli ekskavator bilan ichki ag'darmaga qayta to'kish texnologiyasi. Qiya va o 'ta qiya yotgan ruda konlarini qazib chiqarish tizimlari. | 2 |
| 22 | Qiya va o 'ta qiya yotgan ruda konlarini qazib chiqarish tizimlari. | 2 |
| 23 | Foydali qazilma zaxiralari tasnifi va me'yorlash. | 2 |
| 24 | Karyerlarda ruda yo'qotilishi va sifatsizlanishining asosiy ko'rinishlari va ularni aniqlashning umumiy tamoyillari. | 2 |
| **Jami:** | | **48 s** |



### 4. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar ko'mir va ruda konlarining yotish elementlarini o 'rganish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni hosil qiladilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professoro'qituvchilari tomonidan uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Unda talabalat ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilimlarini amaliy masalalar yechish orqali ko'nikmalarga aylantiradilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalarni o'zlashtirish asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish,masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

**Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy mavzulari**

**Amaliy mashg'ulotlar**

| T/r | Amaliy mashg'ulotlar mavzulari | soat |
|---|---|---|
| | ***VII- semestr*** | |
| 1 | Karyer maydoni, uning elementlarini maketlar, plakatlar va o quv kinofilmlar orqali o'rganish. | 4 |
| 2 | Pog'ona va uning elementlarini maket va plakatlar yordamida o'rganish. Elementlar o'lchamlarini hisoblash. | 2 |
| 3 | Burg'ilab-portlatish ishlari parametrlarini hisoblash bo'yicha misol va masalalar yechish. | 4 |
| 4 | Burg'ilash stanogi rusumini tanlash va uning unumdorligini hamda parkini aniqlash. | 4 |
| 5 | Karyerlarda qazib yuklash ishlari uchun ekskavator rusumini tanlash va kavjoy parametrlarini aniqlash. | 2 |
| 6 | Ekskavator unumdorligi va karyer yuk aylanmasini yuklash uchun zarur bo'lgan ekskavator parkini hisoblash. | 4 |
| 7 | Karyer transporti, ularning turlari va qo'llanish sharoitlarini o'quv kinofilmlar orqali o'rganish. | 4 |
| 8 | Avtomobil transporti va buldozer yordamida ag'darma hosil qilishda buldozer ish fronti uzunligini aniqlash. | 4 |
| 9 | Qoplama jinslarini ESH -12,5/12,5 rusumli draglayn bilan ichki ag'darmaga ekskavatsiya qilishda ag'darmaning parametrlarini aniqlash. | 2 |
| 10 | Ochiq kon lahimlari va ularning vazifalari. | 2 |
| 11 | Kapital transheya hajmini aniqlash. | 2 |
| 12 | Kapital transheyalar trassasi. | 2 |
| 13 | Konlarni ochiq usulda qazib olishda o'rtacha ochish koeffitsientini aniqlash. | 4 |
| 14 | Joriy ochish koeffitsientini aniqlash. | 2 |
| 15 | Qoplama jins pog'onasini ESH-12,5/12,5 draglayni bilan qazib olib qayta ekskavatsiyalamasdan ichki ag'darmaga joylashtirish parametrlarini hisoblash. | 4 |
| 16 | Foydali qazilma zaxiralari tasnifi va ularni me'yorlashni o'rganish. | 2 |
| **Jami:** | | **48 s** |

### 5. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o 'quv rejada ko'zda tutilmagan.

### 6. Kurs ishi (loyihasi)ni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar va tavsiyalar

Fan bo'yicha kurs ishi (loyihasi) namunaviy o'quv rejada rejalashtirilmagan.

### 7. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar bo'yicha ko'rsatmalar va tavsiyalar

Ushbu o 'quv fani bo'yicha talabaning mustaqil ishi ma'ruzalar konspekti va tavsiya etilgan adabiyotlar hamda davriy jurnallar va internet materiallari bilan ishlashni, referatlar yozishni, standart talablariga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o 'z ichiga oladi.

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari**

| | Mavzular | soat |
|---|---|---|
| 1 | Konlarni ochiq usulda qazib olishning o'ziga xos xususiyatlari afzalligi va kamchiliklari; | 2 |
| 2 | Ochiq kon ishlari jarayonlari davrlari va asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkachlar; | 4 |
| 3 | Karyerning elementlari va ularning o'lchamlari. | 4 |
| 4 | Pog'ona, uning elementlari va parametrlari; | 4 |
| 5 | Kon jinslari ochiq kon ishlari obyekti. | 4 |
| 6 | Kon jinslari qazishda tayyorlash usullari va qo'llanishi; | 4 |
| 7 | Kon massivini portlatib qazishga tayyorlashda maydalangan jins bo'laklari sifatiga qo'yiladigan talablar; | 4 |
| 8 | Portlatish skvajinalari, ularning parametrlari va pog'ona blokida joylashish sxemalari; | 4 |
| 9 | Burg'ilash stanoklari, ularning tiplari, ishlash printsiplari, qo'llanish sharoitlari. Unumdorligini va uni aniqlash tartibi; | 2 |
| 10 | Portlovchi modda (PM) zaiyadi, uning ko'rinishlari va konstruktsiyasi. | 4 |
| 11 | PM etalon zaryadi va solishtirma zaryadi, ularni aniqlash tartibi; | 2 |
| 12 | Karyerlarda qazib-yuklash ishlari. | 4 |
| 13 | Qazib-yuklash mashinalarining turlari tartibi va ishlash printsipi unumdorligini hisoblash tartibi; | 2 |
| 14 | Karyer transportining o'ziga xos xususiyati va ko'rinishlari. | 4 |
| 15 | Karyer yuk aylanmasi va yuk potoki, ularning transport turini tanlashdagi ahamiyati; | 2 |
| 16 | Temir yo'l transporti. Temir yo'llar ularning turlari va yuk o'tkazish qobiliyati. Yo'llarning yuk o'tkazish qobiliyatini aniqlash; | 4 |
| 17 | Avtomobil transporti. Avtomobil yo'llari, ularning konstruksiyalari va yuk o'tkazish qobiliyati. | 4 |
| 18 | Yo'llarning yuk o'tkazish qobiliyatini aniqlash; | 4 |
| 19 | Qoplama jins ag'darmalari, ularning ko'rinishlari va hosil qilish usullari. Qo'llanadigan mashina va uskunalar. | 2 |
| 20 | Ag'darma tupiki va uning sig'imdorligini aniqlash; | 4 |
| 21 | Karyer maydoni, uni ochish usullarining tasnifi | 2 |
| 22 | Kapital transheyalar tizimi trassasi va ularni o'tish usullari qo'llanadigan texnik vositalar; | 4 |
| 23 | Karyer maydonini yakka guruh va umumiy transheyalar bilan ochish usullari, ularni qo'llanish sharoitlari va karyer maydoniga nisbatan joylashishi; | 4 |
| 24 | Konlarni ochiq usulda qazish tizimlari. | 4 |
| 25 | Qazish tizimlarining tasnifi va qo'llanish sharotilari; | 4 |
| 26 | Qazish tizimlarining elementlari. Elementlar parametrlarini aniqlash usullari va ularni hisoblash; | 4 |
| 27 | Konlarni ochiq usulda qazib olishda davriy-oqimli texnologiyani qo'llashning hozirgi vaqtdagi holati va rivojlanish istiqbollari. | 4 |
| | Jami | 94 s |

**Dasturning informatsion- uslubiy ta'minoti.**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida O'zbekiston Respublikasining Mehnatni muhofaza qilish qonuni, Konchilikga oid qonunlari, Prezident Qarorlari va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, chet el va Respublikamizda nashr etilgan adabiyotlar,elektron adabiyotlar, turli slaydlar, vikepediyalar, ilmiy jurnallardagi maqolalar, ma'ruza matnlari, fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar hamda Internet materiallaridan foydalaniladi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.



-Kon mashinalari bajaradigan jarayonlar mavzulariga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;

-Qazish mashinalarning unumdorlik parametrlarini, ekskavatorlar qirqish kuchini, ekskavatorlar ishchi parametrlarini hisoblash mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlardaaqliy xujum, guruxli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan;

-Burg'ulash stanoklari ishchi organlari tuzilishini o'rganish va ularning asosiy o'lchamlarini aniqlash, yuklash mashinalari ishlash prinsipini o'rganish mavzularida o'tkaziladigan tajriba mashg'ulotlarida kichik guruxlar musobaqalari, guruxli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

**Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish**

Talabalar bilimini nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi N i z o m ( *Nizom O'z.R. OO'MTVning 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. O'z.R. OO'MTVning 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.)* asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdagi, ya'ni **joriy, oraliq va yakuniy** nazoratlar o'tkaziladi.

**Joriy nazorat** - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari buyicha. og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

**Oraliq nazorat** – semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (*fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan*) bo'limi tugallangandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (*yozma*, og'zaki so'rov ) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi

**YAkuniy nazorat** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "YOzma ish" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat test shaklida o'tkazilishi mumkin.

**Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish nazorati**

«Ochiq konchilik ishlari» fanidan 5311600 – Konchilik ishi bakalavrlari uchun ishchi rejada jami 190 soat, shundan 48 soat ma'ruza, 48 soat amaliy mashulot, 94 soat mustaqil ta'lim uchun ajratilgan.

Mazkur Nizom Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi PK,-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng kamrovli isloxotlarda faol ishtirokini ta'miilash buyicha kushimcha chora-tadbirlar tugrisida"gi karoriga muvofik oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimini belgilaydi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

- joriy baholash (JN);